

SIYOSIY PEDAGOGIKA FANI RIVOJINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Karimov Xurshid Abdumannabovich

Tashkent International University of Education

E-mail: s201@tiue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy siyosiy pedagogikaning asosiy tendentsiyalarining tahlili amalga oshirilgan. Muallif aniq misollar asosida ushbu sohaning bugungi davr uchun dolzarbligi hamda yangi tendentsiyalarini ochib berib, ularning o'ziga xos jihatlarini ajratish chiqqan. Ushbu tendentsiyalar siyosiy pedagogikaning o'zagarayotgan dunyoga moslashishga bo'lgan intilishini aks ettirishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogika, siyosiy pedagogika, ta'lim, xalqaro munosabatlar, madaniyatlararo muloqot, yumshoq kuch omili.*

CURRENT TRENDS IN THE FIELD OF POLITICAL PEDAGOGY

Karimov Khurshid Abdumannabovich

Tashkent International University of Education

E-mail: s201@tiue.uz

Abstract. In this article, the author analyses the main trends in modern political pedagogy. Using specific examples, the author demonstrates the relevance of this field of education and its current trends, highlighting their unique aspects. It is demonstrated that these trends reflect the desire of political education to adapt to the changing conditions of the world.

Keywords: *pedagogy, political pedagogy, education, international relations, intercultural dialogue, soft power factor.*

Zamonaviy pedagogika fanlarida turli yo'nalishlar vujudga kelmoqda va bu nafaqat ta'lim sohasidagi global o'zgarishlar, balki ijtimoiy-madaniy va sivilizatsion transformatsiyalar bilan bog'liqdir. Xususan, bugungi kunda pedagogika doirasida fanlararo yo'nalishlar ko'paymoqda, masalan komparativistik pedagogika bevosita falsafiy komparativistika va madaniyatlararo falsafa sohasidagi tadqiqotlar o'z ichiga qamrab oladi [1, 89]; ijtimoiy pedagogika sotsiologiya, psixologiya, antropologiya va siyosatshunoslik bilan bog'liq holda rivojlanmoqda; madaniyatshunoslik va pedagogika tutashi natijasida madaniy pedagogika shakllangan va asosan ta'lim va tarbiya jarayoniga madaniy omillar ta'sirini tadqiq etishga qaratilgan; ta'lim sohasi raqamlashishi natijasida ommaviy kommunikatsiyalar, internet va raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olgan media-pedagogika bizning respublikamizda ham rivojlanib kelmoqda [2]. Global miqyosda ro'y berayotgan turli jarayonlar, xususan, fuqarolik jamiyati faollashishi va siyosiy integratsiya natijasida bugungi kunda siyosiy pedagogika ham dolzarb sohaga aylanib bormoqda. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish, ularning jamiyat hayoti va siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirishga aynan siyosiy pedagogika xizmat qiladi. Demokratik jamiyat sharoitida fuqarolar turli siyosiy jarayonlardan xabardor bo'lishi, siyosiy axborot va ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy-siyosiy qarorlarni qabul qilishda samarali ishtirok etishni oshirish aynan siyosiy pedagogika fundamentida amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, siyosiy pedagogika turli lokal va global miqyosdagi siyosiy jaranlar hamda transformatsiyalarga davlat manfaatlari nuqtai nazaridan qarash va javob berish uchun xizmat qiladi. Masalan, bugungi kunda xalqaro siyosiy jarayonlarda "yumshoq kuch" omili alohida o'ringa ega va bunda quyidagi sabablar mavjud:

1. “Yumshoq kuch”ning asosini mamlakat madaniyati, siyosiy tizimi va turmush tarzi boshqa mamlakat uchun ijobiy ko‘rinishi hamda unga tortilishiga asoslangan. Bu esa o‘z siyosiy ta’sirini hamda obro‘ni oshirishga xizmat qiladi.

2. Boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik munosabatlarni o‘rnatish va ko‘llab-quvvatlash uchun “yumshoq kuch” diplomatik munosabatlarga asoslanadi va bu madaniy almashinuvlar, ta’lim dasturlari, ilmiy hamkorlik, turizm kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

3. Global raqobat sharoitida “yumshoq kuch” orqali kuchishlalar usullarga murojaat qilmagan holda davlat o‘z obro‘-e’tiborni oshirish va mustahkamlashi mumkin. Bu esa turli harbiy-iqtisodiy resurslarni tejashga xizmat qiladi.

“Yumshoq kuch” omili madaniy va ta’lim dasturlari, stipendiyalar, insonparvarlik yordami, media va axborot makoni kabi misollarda namoyon bo‘ladi. Insonlarning siyosiy madaniyati, faol fuqarolik pozitsiyasi va jamiyatda hayotidagi ishtirokini shakllantirish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan siyosiy pedagogika aynan “yumshoq kuch” omilini o‘z ichiga oladi, chunki ushbu omilning muhim namoyon bo‘lish shakli aynan ta’lim dasturlari hisoblanadi. Siyosiy pedagogika ta’lim dasturlari orqali qadriyatlarni tarqatish bilan shug‘ullanadi va shu bilan birga diplomatik munosabatlar va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, siyosiy pedagogika fuqarolarda yetakchilik fazilatlarini va siyosiy faollikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu bevosita boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy faollik, argumentatsiya bilan bog‘liq va bu yerda ko‘rishimiz mumkinki, siyosiy pedagogika sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, axborot texnologiyalari kabi boshqa fanlar bilan ham bog‘liq. Ya’ni siyosiy pedagogika rivojining asosiy tendentsiyalaridan biri fanlararo yondashuvdir. Bundan tashqari, ta’limning raqamlashuvi siyosiy pedagogikaning muhim tendentsiyasiga aylandi, chunki ta’lim usullari va metodikalari shunga mos ravishda o‘zgarib bormoqda. Onlayn-kurslar, vebinarlar, ijtimoiy tarmoqlar kabi raqamli instrumentlarning joriy qilinishi siyosiy pedagogikaning metodik bazasini ham o‘zgartirmoqda.

Yuqorida siyosiy pedagogikaning fanlararo yondashuv va ta’lim raqamlashuvi bo‘lgan ikkita muhim tendentsiyani aytib o‘tdik, ammo madaniyatlararo va xalqaro jihatlar ham ushbu tendentsiyalarga kiradi. Globalizatsiya va madaniyatlararo o‘zaro hamkorlik sharoitida fuqarolarni madaniyatlararo muloqot va bag‘rikenglikka o‘qitish zarur. Siyosiy pedagogika ushbu jihatlariga katta e’tibor qaratmoqda nafaqat maxsus fanlar, balki elektiv va fakultativ fanlar doirasida ham. Shu bilan yana bir muhim tendentsiya bog‘liqki, bugungi kunda biz axborot makonida yashamoqdamiz va ushbu makonda feyklarga barham berish muhim masalaga aylangan [3, 19]. Turli feyklar tarqalishi siyosiy pedagogika uchun ham muhim va bunda tahsil oluvchilarni axborotning tahlili, tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlik ko‘nikmalarini o‘stirio‘ katta ahamiyatga ega.

Shundaq qilib, biz zamonaviy siyosiy pedagogikaning quyidagi muhim tendentsiyalarini ajratib chiqdik:

1. Fanlararo yondashuv.
2. Ta’lim raqamlashuvi.
3. Madaniyatlararo va xalqaro jihatlar.
4. Feyklarga barham berish.

Ushbu tendentsiyalar nafaqat siyosiy pedagogika, balki ta’lim tizimi oldida turgan muhim chaqiriq va masalalarni aks ettiradi va fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirokga tayyorlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev. The Phenomenon of Education in the Context of and Intercultural Philosophical Approach // *Wisdom*, 2022, 4(24), p.84-90. DOI: 10.24234/wisdom.v24i4.941.
2. Бабашев Ф.А. Ўзбекистон таълим тизимида медиатаълимни жорий этиш масалалари // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2023. - №5 – NUU Conference 2. – P.216-220.
3. Усманова З.Б. Ўқувчи-ёшларда сиёсий-ҳуқуқий фаолликни шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг ўрни // *Современное образование (Узбекистан)*. – 2017. – №1. – Б.18-23.